**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI BOSHLIG‘INING**

# BUYRUG‘I

**2023-yil «1» fevral S-1-23**

## “O‘zagroinspeksiya” markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tumanlar (Quvasoy shahar) bo‘limlarining vaqtinchlik nizomlarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son Farmoni 5-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zagroinspeksiya” to‘g‘risidagi nizomning 17-band “yo” va “j” kichik bandlariga asosan

**B U Y U R A M A N:**

**1.** Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘ining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish , davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Yuridik ta’minlash bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 3-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Axborot tahlil, ijro intizomi va ma’muriy amaliyot boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 4-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari yetishtirishni nazorat qilish boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 5-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Paxta xom-ashyosi, don, urug‘lar va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan

foydalanishni nazorat qilish boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 6-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan suv resurslaridan foydalanishni va agrotexnik tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qilish boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 7-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 8-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Chorvachilikda naslchilik ishini nazorat qilish bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 9-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 10-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Me’yoriy hujjatlar ijrosini nazorat qilish, sertifikatlash va metrologiya bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 11-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Moliya-iqtisod bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining Murojaatar bilan ishlash bo‘limi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 13-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari to‘g‘risida vaqtinchalik nizom 14-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining tumanlar (Quvasoy shahar)bo‘limlari to‘g‘risida vaqtinchalik nizom 15-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** “O‘zagroinspeksiya” rahbarlari faoliyatini samarali tashkil qilish uchun ular o‘rtasida taqsimlangan vazifalar va funksiyalar mazkur buyruqning 1-bandi bilan tasdiqlangan “O‘zagroinspeksiya” markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarining Nizomlarida nazarda tutilganligi, shuningdek, tarkibiy bo‘linmalarning vazifalar taqsimoti va xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

**3.** “O‘zagroinspeksiya” markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va tumanlar (Quvasoy shahar) bo‘limlari faoliyatni tashkil etishda mazkur Nizomlar, vazifalar taqsimoti va lavozim yo‘riqnomalariga qat’iy amal qilishni ta’minlasin hamda ularning talablari buzilishiga yo‘l qo‘ygan xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari ko‘rilishi to‘g‘risida rasman ogohlantirilsin.

**4.** “O‘zagroinspeksiya”ning hududiy boshqarmalari uch kunlik muddatda tarkibiy bo‘linmalarning vazifalar taqsimoti hamda xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini qayta ko‘rib chiqsin va tasdiqlasin.

**5.** “O‘zagroinspeksiya” boshlig‘ining 2022-yil 29-sentabrdagi I-75 va 30-noyabrdagi I-93-sonli buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

**6.** Axborot tahlil ijro intizomi va ma’muriy amaliyot boshqarmasi (J.Mirsaidov) ushbu buyruqni Inspeksiyaning tarkibiy bo‘linmalariga yetkazsin.

**7.** Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish boshliq o‘rinbosari M.Rasulov zimmasiga yuklansin.

**Boshliq** **A. Vaxabov**
Toshkent sh.